HELLO!

DEJON SOG‘LIQNI SAQLASH UNIVERSITETI



HiT 대전보건대학교
DAEJEON HEALTH INSTITUTE OF TECHNOLOGY

HiT 대전보건대학교
DAEJEON HEALTH INSTITUTE OF TECHNOLOGY


DEJON - Koreyaning 6 yirik
metropolitan shaharlaridan biri!


DEJON - Koreyaning ilm-fan
poytaxti va birinchi darajali shahri.


Ko plab kelajak texnologiyalari yaratilib
rivojlanadigan shahar
Aerospace(Aerokoinot), Biohealth(Biologik salomatlik)
Chips(Nano va yarimo tkazgichlar), Defense(Milliy mudofaa)


Dunyo festivallari shahri!


Seoul
Daejeon
Busan
Welcome to
KOREA
in Dejon
Dejon aholi rasadxonasi
Expo ilmiy parki
Uam tarixiy parki
Hanbat arboretumi
Yurim parki
Dejon milliy qabristoni
Dejon akvariumi
O-World
Puri parki
Jangtesan tabiiy dam olish o'rmoni

>>

WELCOME TO DEJON SOG‘LIQNI SAQLASH UNIVERSITETI



5 Dejon Sog‘liqni saqlash universiteti haqida

5 Universitet tarixi

6 Dejon Sog‘liqni saqlash universitetining afzallik jihatlari

8 Talabalar uchun ijtimoiy qulayliklar

8 Talabalar turar-joyi haqida ma’lumot

9 Fakultetlar haqida ma’lumot

01 Dejon Sog‘liqni saqlash universiteti haqida

Dejon Sog‘liqni saqlash universiteti 1977-yilda xayriya, mehnatsevarlik va izlanish ta’limoti shiori ostida milliy hamda ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan iste’dodlarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan. Xususan, universitet hayot sifatini yaxshilashda asosiy o‘rinni egallagan sog‘liqni saqlash sohasi hamda bilim va axborot jamiyatiga hissa qo‘sha oladigan mutaxassislar tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

02 Universitet tarixi

1977-yil Dejon Sog‘liqni saqlash kasb-hunar maktabi tashkil etilishiga ruxsat berildi.

1978-yil Dejon Sog‘liqni saqlash kasb-hunar maktabi tashkil etildi.

1978-yil Maktab nomi Dejon Sog‘liqni saqlash kollejiga o‘zgartirildi.

1998-yil Kollej nomi Dejon Sog‘liqni saqlash universitetiga o‘zgartirildi.

2009-yil Universitet korxonasi (Dejon Sog‘liqni saqlash universiteti qariyalar uyi) tashkil etildi.

2011-yil Jahon darajasidagi kollej (WCC) sifatida tanlandi.

2011-yil Dejon Sog‘liqni saqlash universitetining Hamshiralik ishi fakulteti 4 yillikka aylantirildi.

2016-yil Universitetning inglizcha nomi o‘zgartirildi (Daejeon Health Institute of Technology)

2022-yil Dejon Sog‘liqni saqlash universitetida Ta’lim vazirligi tomonidan tanlangan professional texnologiya bo‘yicha magistratura bo‘limini tashkil etish uchun yakuniy ruxsat berildi.

- Yangi texnologiya diagnostik tekshiruv kursi (Klinik patologiya fakulteti), Maxsus tibbiy asbob-uskunalar diagnostikasi kursi (Rentgenologiya fakulteti)

2023-yil Universitetning 45 yillik yubiley marosimi o‘tkazildi.

03 Dejon Sog‘liqni saqlash universitetining afzallik jihatlari

1 Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi!

Ketma-ket 10 yil davomida ishga joylashishda eng yuqori ko‘rsatkich salohiyati

Dejon, Chungchong va Sejong hududlari bo‘yicha 1-o‘rin! Butun mamlakat bo‘yicha TOP 9-o‘rin!

2 Davlat imtihoni!

Ishga joylashishda yuqori ko‘rsatkichning siri - bu davlat imtihonidan o‘tish darajasi yuqoriligida! (Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 7%p yuqori)

Fakultet nomi	Tayyorlanadigan kadrlar	rllmtihondan o‘tish ko‘rsatkichi (%)	Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich (%)
Klinik patologiya fakulteti	Klinik patolog	88.5	87.8
Stomatologiya texnologi-yasi fakulteti	Stomatologiya sohasi mutax-assisi	91.7	82.0
Stomatologiya gigiyenasi fakulteti	Stomatologiya gigiyenisti	90.0	82.1
Sog‘liqni saqlash va tibbiy boshqaruv fakulteti	Sog‘liqni saqlash va tibbiy ma’lumotlar boshqaruvchisi	59.7	55.2
Fizioterapiya fakulteti	Fizioterapevt	95.5	86.1
Shoshilinch tibbiy yordam fakulteti	Shoshilinch tibbiy yordam sohasi xodimi	92.7	88.1
Ish terapiyasi fakulteti	Ish terapevti	86.6	79.0
Radiologiya fakulteti	Rentgenolog	84.2	75.0
Optometriya fakulteti	Optikolog	91.4	74.9
Hamshiralik ishi fakulteti	Hamshira	99.1	97.3

Respublika bo‘yicha imtihondan yuqori ko‘rsatkich bilan o‘tadigan nomzodlarni doimiy ravishda tayyorlash

- 2022-yilda 50-Fizioterapevt sohasida “Respublika bo‘yicha eng yuqori o‘rin”
- 2020-yilda 48-Ish terapevti sohasida “Respublika bo‘yicha eng yuqori o‘rin”
- 2019-yilda 47-Stomatologiya mutaxassisi sohasida “Respublika bo‘yicha eng yuqori o‘rin”

3 Stipendiya!

- **20** xildan ortiq universitet ichki stipendiyalari
- **120** xildan ortiq universitet tashqi stipendiyalari

4 Davlat tomonidan moliyaviy yordam!

21 yil ketma-ket (2001-2022) davlat tomonidan moliyaviy yordam dasturi uchun tanlab olindi

Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash loyihasi

Kelajak jamiyati uchun zarur yuqori malakali kadrlarni tayyorlash loyihasi

LINC 3.0 loyihasi

Sanoat sohasida zarur malakali kadrlarni tayyorlash loyihasi

5 Milliy miqyosdagi universitet!

7 yil davomida jahon darajasidagi universitet WCC (World Class College) sifatida tanlab olinishi.

Koreyaning eng yuqori malakali texnik mutaxassislarni tayyorlashning hukumat loyihasi universitetlar o‘rtasida eng yuqori ko‘rsatkichli loyiha.

6 Mutaxassis universitet!

Universitetda bakalavrdan oldingi daraja, bakalavr darajasi va magistr darajasini qo‘lga kiritish mumkin!

STEP 1

Bakalavrdan oldingi daraja (3 yil)

Bakalavrdan oldingi darajani olish

Oddiy malakali kadrlarni tayyorlash

STEP 2

Mutaxassislik intensiv kursi (1 yil)

Bakalavr darajasini olish

O‘rta malakali kadrlarni tayyorlash

STEP 3

Professional texnologiya magistratura kursi (2 yil)

Magistr darajasini olish

Yuqori malakali professional texnik kadrlarni tayyorlash

04 Talabalar uchun ijtimoiy qulayliklar

STUDENT WELFARE

Qulayliklar	Ma’lumot
Sog‘liqni saqlash xonasi	Universitet talabalari, professor-o‘qituvchilar va xodimlar sog‘lig‘ini saqlash va ularning salomatlik darajasini oshirish orqali universitetda ta’lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish ko‘zda tutilgan.
Talabalar uchun konsultatsiya xonasi	Universitetda o‘qish paytida talabaning o‘zi hal qilishi qiyin bo‘lgan shaxsiy muammolari va o‘y-tashvishlari, o‘zaro ziddiyatlar bo‘yicha maslahat berish orqali muammoni obyektiv baholab, o‘zini anglash va boshqalarni qabul qila olish salohiyatini oshirib, muammolarni hal qilishga va talabaning o‘sishiga yordam beriladi va qo‘llab-quvvatlanadi.
Misomam (Universitet kafeteriyasi)	Universitetning barcha a’zolari sifatli va mazali hamda muvozanatli ratsiondagi taomlar bilan ta’minlanadi.
B2WIN (O‘quv kafesi)	Universitet talabalari va professor- xodimlarni ta’lim olish, dam olish (shu jumladan, kafe xizmati) va o‘qish maskani bilan ta’minlab, qulay muhitda ish va ta’lim samaradorligini oshirish maqsad qilingan.
HIT forum zali (Konferensiya zali)	160 o‘ringa mo‘ljallangan ma’ruzalar, maxsus ma’ruzalar, seminarlar, konferensiyalar o‘tkazish joyi.
HIT studiyasi	jUniversitet a’zolari uchun sifatli ta’lim kontentlarini ishlab chiqish, video tasvirga olish, suratga olish, real vaqtda efirga uzatish kabi ishlarni amalga oshirishi uchun tashkil etilgan studiya.

05 Talabalar turar-joyi haqida ma’lumot

Dormitory Information

Dejon Sog‘liqni saqlash universitetining 4 ta zamonaviy jihozlangan talabalar turar-joylari talabalar uchun kampusda yashash ishtiyoqini oshirib, ular uchun qiziqarli va mustaqil muhitni ta’minlaydi.

Nomi	Tashkil etilgan yili	Jinsi	O‘rinlar soni
Bibongsuk	2002-yil	Qizlar	176 kishi
Chongunje	2005-yil	Qizlar	120 kishi
Cool House	2010-yil	Qizlar	14 kishi
Hengbok (Baxt) talabalar turar-joyi)	2020-yil	O‘g‘il bolalar	164 kishi
Yangi qurilgan talabalar turar-joyi	2025-yilga rejalashtirilgan	Aniqlash zarur	Aniqlash zarur

06 Fakultetlar haqida ma’lumot

Mutaxassisliklar tarkibi: 7 ta yo‘nalish, 30 ta fakultet

Professional texnologiya magistrlik dasturi (Mutaxassis universitet)	- Klinik patologiya bo‘limi - Radiologiya bo‘limi
4 yillik	- Hamshiralik ishi fakulteti
3 yillik (+1) Bakalavr darajasi mutaxassislik intensiv kursi (4 yillik bakalavr darajasi)	- Klinik patologiya fakulteti (+1) - Radiologiya fakulteti (+1) - Stomatologiya texnologiyasi fakulteti (+1) - Stomatologiya gigiyenasi fakulteti (+1) - Atrof-muhit, xavfsizlik va sog‘liqni saqlash fakulteti (+1) - Optometriya fakulteti (+1) - Fizioterapiya fakulteti (+1) - Shoshilinch tibbiy yordam fakulteti (+1) - Ijtimoiy ta’minot fakulteti (+1) - Ish terapiyasi fakulteti (+1) - Tibbiy kosmetika fakulteti - Oziq-ovqat va nutrisiologiya fakulteti (+1) - Maktabgacha ta’lim fakulteti (+1) - Tibbiy komissarlik fakulteti (Shoshilinch tibbiy yordam mutaxassisligi) - Politsiya sud-tibbiyot ekspertizasi fakulteti (+1) - Tabiiy ofatlar, yong‘inga qarshi kurash va qurilish xavfsizligi fakulteti - Sog‘liqni saqlash va tibbiy boshqaruv fakulteti (+1) - Kompyuter axboroti fakulteti (+1) - Tibbiyot menejmenti fakulteti - San'at va jismoniy tarbiya fakulteti - Biofarmasevtika fakulteti
2 yillik	- Go‘zallik va parvarishlash fakulteti - Dafn marosimi boshqaruvi fakulteti - Mehmonxona restorani va pazandachilik fakulteti - Modalar koloristi va stilistlar fakulteti - Zargarlik buyumlari dizayni fakulteti - Maxsus tibbiy komissarlik fakulteti - Radiotelevideniye kontenti fakulteti - Uy hayvonlari fakulteti

Bo‘lim	Fakultet nomi (O‘zbek tilida)	Fakultet haqida ma’lumot
Sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanlari bo‘limi I	Klinik patologiya fakulteti	Ushbu fakultetda bemorlar qonini, tana suyuqliklarini va to‘qimalarini tekshiradigan va shifokorlarga kasalliklarni tashxislash va boshqarish uchun zarur bo‘lgan diagnostik test ma’lumotlarini taqdim etadigan klinik patologlar tayyorlanadi.
	Stomatologiya texnologiyasi fakulteti	Tishlar va ularning atrofidagi to‘qimalarning nuqsonlarini sun'iy tarkib orqali ishlab chiqarib, og‘iz bo‘shlig‘ining normal funksiyasini tiklash uchun nozik tish protezlarini ishlab chiqarish bo‘yicha professional ko‘nikmalarga ega bo‘lgan stomatolog-muhandislar tayyorlanadi.
	Stomatologiya gigiyenasi fakulteti	Tish va og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarining oldini olish bilan bog‘liq og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini boshqarish bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallash orqali odamlar salomatligini yaxshilashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar tayyorlanadi.
	Oziq-ovqat va nutrisiologiya fakulteti	Oziq-ovqat va nutrisiologiya sohasidagi mutaxassislar sifatida kasalliklarning oldini olish va salomatlikni mustahkamlash uchun nutrisiologiyani boshqarish va nutrisiologiya xizmatlarini taqdim eta oladigan nutrisiologlar tayyorlanadi.
	Optometriya fakulteti	Talabalar sifatli ko‘zoynak yasash va kontakt linzalarini tanlashda "retsept bo‘yicha sinov va tarqatish texnologiyasi" bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘ladi va yetarlicha klinik tajribaga ega bo‘lib, "ko‘rish funksiyasini himoya qilish" orqali jamiyatda ko‘ngilli faoliyat ko‘rsatadigan optiklar tayyorlanadi.
	Biotibbiyot fakulteti	4-sanoat inqilobining o‘zagi bo‘lgan yangi avlod, eng zamonaviy biofarmasevtika sanoatiga yetakchilik qiladigan biofarmasevtika bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.
Sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanlari bo‘limi II	Radiologiya fakulteti	3 yillik o‘quv dasturi orqali asosan tibbiy radiologiya diagnostikasi texnologiyasi, o‘simta radioterapiya texnologiyasi va klinik tibbiyot sohalarida yadro tibbiyoti texnologiyasi uchun mas'ul bo‘lgan professional tibbiy rentgenologlar (radiologlar) tayyorlanadi.
	Tibbiy ma’muriy ma’lumotlar fakulteti	Tibbiy yozuvlar sohasi, shifoxona ma’muriyati va shifoxona ishi sohasi, tibbiy sug‘urta va tibbiy ma’lumot sohalarida moslashtirilgan iste’dodlarni yetishtirish maqsad qilingan.
Sog‘liqni saqlash va tibbiyot fanlari bo‘limi II	Fizioterapiya fakulteti	Asosiy tibbiyot faniga asoslanib, elektr, yorug‘lik, suv va mashqlar kabi fizioterapevtik omillardan foydalangan holda professional fizioterapiya usullarini o‘rganish orqali kishilar salomatligi va farovonligiga hissa qo‘shadigan iqtidorli fizioterapevtlar tayyorlanadi.
	Shoshilinch tibbiy yordam fakulteti	Shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bemor uchun voqea joyida bemorning hayotini saqlab qolish, ikkilamchi zarar yoki kasallikning oldini olish hamda shifoxonada shoshilinch tibbiy yordam bilan bog‘liq ishlarni bajaradigan shoshilinch tibbiy texnik xodimlar tayyorlanadi.
	Ish terapiyasi fakulteti	Jismoniy yoki ruhiy kasalliklar tufayli funksional nogironligi bo‘lgan bemorlarga mazmunli terapevtik faoliyat (kasb) orqali mustaqil hayot kechirishga yordam beradigan ish terapevtlari tayyorlanadi.
Sog‘liqni saqlash fanlari fakulteti	Atrof-muhit, xavfsizlik va sog‘liqni saqlash fakulteti	Inson salomatligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan suv, havo, tuproq va chiqindi kabi atrof-muhit(Environment) va xavfsizlik(Safety) hamda salomatlik(Health)ni boshqaradigan xavfli moddalarni o‘lchash va tahlil qilish, sanoat bilan bog‘liq ofatlarning oldini olish, saqlash sohalarida ixtisoslashgan “ESH” texnik xodimlar tayyorlanadi.
	Kosmetika fanlari fakulteti	Kosmetikani rivojlantirish uchun tizimli bilim va texnik imkoniyatlar rivojlantiriladi va kosmetika bilan bog‘liq barcha vazifalarni, shu jumladan, tadqiqot, ishlab chiqish, ta’lim va kosmetikani ilgari surish kabi vazifalarni bajara oladigan mutaxassislar tayyorlanadi.
	Tibbiy komissarlik fakulteti	Harbiylarning maxsus tibbiy bilim va amaliyotga ega bo‘lgan professional tibbiyot xodimlariga bo‘lgan talabiga javoban, o‘z xizmat vazifalarini professional askarlar sifatida bajarish uchun zarur bo‘lgan tibbiy nazariya va amaliyotga ega tibbiyot xizmatchilarini tayyorlash maqsad qilib qo‘yilgan.
	Maxsus tibbiy komissarlik fakulteti	Harbiy vazifalarni bajarish uchun mas'ul bo‘lgan maxsus xodimlar tayyorlanadi.
	Sud-tibbiyot ekspertizasi fakulteti	Sud-tibbiyot ekspertizasi fakultetida sud-tibbiyot fanining har bir sohasi va bosqichida har tomonlama ta’lim va xarakter tarbiyasi orqali eng yaxshi ilmiy qobiliyatga, sog‘lom fikrlashga va xarakterga ega bo‘lgan sud-tibbiyot ekspertlarini yetishtirish maqsad qilingan.

Bo‘lim	Fakultet nomi (O‘zbek tilida)	Fakultet haqida ma’lumot
Sog‘liqni saqlash fanlari fakulteti	Tabiiy ofatlar, yong‘inga qarshi kurash va qurilish xavfsizligi fakulteti	Tabiiy ofatlar, yong‘inga qarshi kurash va qurilish xavfsizligi fakulteti Koreyada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan birinchi fakultet bo‘lib, yong‘in o‘chirish va tabiiy ofatlarning oldini olish bo‘yicha xavfsizlik texnologiyalarini tahlil qilish va ishlab chiqish orqali tabiiy ofatlarning oldini olish, qurilish va obyektlar xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan mutaxassislar va davlat xizmatchilarini tayyorlash uchun tashkil etilgan.
Sog‘liqni saqlash konvergensiyasi bo‘limi	Tibbiyot menejmenti fakulteti	Tibbiyot menejmenti fakulteti sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq turli tashkilotlarda, shu jumladan tibbiyot muassasalarida ilmiy va oqilona boshqaruv strategiyalarini o‘rgatadi va tibbiy ma’muriyat, marketing, tibbiy ma’lumotni boshqarish va sug‘urta uchun mas'ul bo‘lgan professional kadrlarni tayyorlaydi.
	Kompyuter axboroti fakulteti	4-sanoat inqilobiga olib keladigan sog‘liqni saqlash sohasida mutaxassislarni yetishtirish uchun tibbiyot sohasi va IT bo’yicha asosiy bilimlar beriladi hamda ikki sohani birlashtiradigan professional bilimlar berilib, raqobatbardosh tibbiyot IT-mutaxassislari tayyorlanadi.
	Modalar koloristi va stilistlar fakulteti	Moda sanoati sohasidagi professional bilimlar va tizimli hissiy koloristikani o‘qitish kursi orqali kolorist sertifikatiga ega bo‘lish va bir vaqtning o‘zida moda va rang bilan bog‘liq amaliy ta’limni mustahkamlash orqali moda sanoati mutaxassislari tayyorlanadi.
	Zargarlik buyumlari dizayni fakulteti	Zargarlik sanoatida tizimli nazariy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va zargarlik sanoati talab qiladigan sohaga yo‘naltirilgan iste’dodlar yetishtiriladi.
	Radiotelevideniye kontenti fakulteti	Yangi media video axborot sohasidagi professional ko‘nikmalar uchun zarur bo‘lgan video, ovoz, yorug‘lik va kompyuter grafikasi texnologiyalari kabi teleko‘rsatuvlar ishlab chiqarish orqali keng qamrovli teleko‘rsatuvlar ishlab chiqarishni boshqaradigan professional radiotelevideniye xodimlari tayyorlanadi.
	San'at va jismoniy tarbiya fakulteti	Integratsiyalashgan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ta’lim rivojiga hissa qo‘sha oladigan va o‘zini tegishli sohalarga bag‘ishlay oladigan malakali mutaxassislar va rahbarlar va yetakchilik xarakteriga ega bo‘lgan ta’lim mutaxassislari tayyorlanadi.
Sog‘liqni saqlash konvergensiyasi bo‘limi	Uy hayvonlari fakulteti	Dejon Sog‘liqni saqlash universiteti hamshiralik va sog‘liqni saqlash sohalariga ixtisoslashgan nufuzli universitetga asoslanib, uy hayvonlari hayotiga befarq bo‘lmaslik hamda kishilarning bahtiyor yashashlari uchun qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan uy hayvonlari sanoatini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan va unga javob beradigan amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlaydi.
Insonparvarlik bo‘limi	Go‘zallik va parvarishlash fakulteti	Ilg‘or o‘quv jarayoni va globallashuv davriga mos sifatli akademik muhit bilan nazariy va amaliy bilimga ega hamda sog‘lom xarakterga ega professional kosmetologlarni yetishtirish maqsad qilingan.
	Ijtimoiy ta’minot fakulteti	Ijtimoiy ta’minot fakulteti joyida amaliyotni o‘tash va sanoatga yo‘naltirilgan o‘quv dasturini joriy qilish va har bir talabaga o‘zining individualligi hamda iste’dodini rivojlantirish uchun turli sertifikatlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.
	Dafn marosimi boshqaruvi fakulteti	Dafn marosimining barcha jihatlari bo‘yicha tizimli ta’lim orqali dafn marosimi, uni boshqarish, dafn qilish tizimlari, dafn marosimi bo‘yicha maslahat va jamoat salomatligini yaxshilashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan dafn marosimi bo‘yicha professional mutaxassislar tayyorlanadi.
	Mehmonxona restorani va pazandachilik fakulteti	Pazandachilik sohasida tizimli nazariy ta’lim va moslashtirilgan amaliyotga asoslanib, oshpazlik mahorati va ko‘nikmalarini oshirish, mehmonxona va restoran sanoatining asosiy ishchi kuchi bo‘lgan oshpaz bo‘lishi uchun oz sonli saralanganlarga asoslangan ta’lim olib boriladi.
Hamshiralik bo‘limi	Hamshiralik ishi fakulteti	Inson hayotining qadr-qimmatini tushunishga asoslanib, hamshiralik ishi ilmi va tajribasini o‘zida mujassam etgan terapevtik yordam ko‘rsatish orqali bemorlar farovonligining maqbul holatini yaxshilashga yordam beradigan mahalliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh hamshiralar tayyorlanadi.
Pedagogika bo‘limi	Maktabgacha ta’lim fakulteti	Maktabgacha ta’lim sohasi bo‘yicha nazariy va amaliy tushunishga asoslanib, maktabgacha ta’lim mutaxassisi sifatida kasbiy malaka va to‘g‘ri xarakterni tarbiyalash orqali davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan kreativ mutaxassislarni tayyorlash maqsad qilingan.

Stomatologiya texnologiyasi fakulteti haqida ma’lumot

Stomatologik protez texnologiyasi taraqqiyotiga yetakchilik qiluvchi Stomatologiya texnologiyasi fakulteti

Fakultet (mutaxassislik) haqida ma’lumot

Og‘iz bo‘shlig‘ining funksiyasi va go‘zalligi uchun moslashtirilgan tish protezlarini yaratadigan stomatologlarni tayyorlash.

Tishlar va uning atrofidagi to‘qimalardagi nuqsonlarni tiklash uchun tish protezlari bo‘yicha tadqiqot olib borilib, professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, mahalliy va xorijdagi stomatologiya texnologiyasi laboratoriyalari va stomatologiya sanoatida faoliyat yuritadigan stomatolog-muhandislar tayyorlanadi.

1978 Tashkil etilgan yili	**296** Tahsil olayotgan talabalar soni	**5,314** Bitiruvchilar soni
18 Professor-o‘qituvchilar soni	**88** Davlat imtihonidan o‘tish ko‘rsatkichi	

Daraja bo‘yicha ma’lumot

- **Stomatologiya texnologiyasi fakulteti mutaxassis bakalavr darajasini olish**
- **Stomatologiya texnologiyasi fakulteti umumiy bakalavr darajasini olish**
  (bakalavrning mutaxassislik intensiv kursini tamomlaganda)

Malaka sertifikatini olish/Davlat imtihoni guvohnomasi

- **Stomatologiya mutaxassisi guvohnomasi**

Asosiy o‘quv dasturi

1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	Ishga joylashish
Mutaxassislik bo‘yicha boshlang‘ich fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha amaliy fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha amaliy fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha intensiv fanlar	
- Universitet hayotini rejalashtirish - Ishga layoqatni tekshirish - O‘z-o‘zini anglash va kasbiy izlanish	- Mutaxassislik ta’limiga e’tibor qaratgan holda o‘rganish - Ish qobiliyatini mustahkamlash - Kasbni tanlash va rivojlanish	- Ishga joylashish ko‘nikmalarni rivojlantirish - Kasb bo‘yicha amaliy tajriba - Ishga joylashish maqsadini aniqlash	- 4 yillik darajani olish - Amaliy salohiyatni mustahkamlash - Ishga joylashish salohiyatini mustahkamlash	

O‘qishni bitirgach kasbga yo‘naltirish

Shifoxona sohasi	Tadqiqot sohasi	Davlat xizmatchisi sohasi	Tadbirkorlik sohasi
Stomatologiya laboratoriyasi	Stomatologiya texnologiyasi bilan bog‘liq korxonalar	Sog‘liqni saqlash bo‘yicha davlat xizmatchisi	Stomatologiya laboratoriyasi bo‘yicha tadbirkorlik
Universitet shifoxonasi stomatologiya laboratoriyasi	Stomatologiya texnologiyasi materiallari	Stomatologiya texnologiyasi bo‘yicha harbiy xodim	Stomatologiya materiallari bo‘yicha texnik tadbirkorlik
Stomatologiya shifoxonasi stomatologiya laboratoriyasi	Stomatologiya texnologiyasi CAD-CAM dasturi		
	Stomatologiya laboratoriyasi 3D print		
	Stomatolog implantatsiya		
	Sun’iy intellekt orqali sog‘liqni saqlash		

Fizioterapiya fakulteti haqida ma’lumot

Insonlar salomatligi uchun qayg‘uradigan fizioterapevtlarni tayyorlash



Fakultet(mutaxassislik) haqida ma’lumot

Fizioterapiya sohasi bilan bog‘liq tizimli ta’limga asoslanib, asab tizimining fizioterapiyasi, tayanch-harakat sohasi fizioterapiyasi va qo‘l fizioterapiyasi sohalarida ishlarni muvaffaqiyatli bajara oladigan kreativ va konvergent professional kadrlar tayyorlanadi.

1990 Tashkil etilgan yili	**246** Tahsil olayotgan talabalar soni	**2,529** Bitirivchilar soni
18 Professor-o‘qituvchilar soni	**96** Davlat imtihonidan o‘tish ko‘rsatkichi	

Daraja bo‘yicha ma’lumot

- **Fizioterapiya fakulteti mutaxassis bakalavr darajasini olish**
- **Fizioterapiya fakulteti umumiy bakalavr darajasini olish**
  (bakalavrning mutaxassislik intensiv kursini tamomlaganda)

Malaka sertifikatini olish/Davlat imtihoni guvohnomasi

- **Fizioterapevt guvohnomasi**

Asosiy o‘quv dasturi

1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	Ishga joylashish
Mutaxassislik bo‘yicha boshlang‘ich fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha asosiy fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha amaliy fanlar	Mutaxassislik bo‘yicha intensiv fanlar	
- Fakultetga moslashish - O‘z-o‘zini anglash - Kasbiy izlanish	- Mutaxassislik salohiyatini mustahkamlash - Kasbni tanlash - Karyera yo‘l xaritasi	- Mutaxassislik salohiyatni rivojlantirish - Davlat imtihoniga tayyorgarlik - Ishga joylashish yo‘l xaritasi	- Daraja kursi - Amaliy salohiyatni mustahkamlash - Aks ettirish ta’limi	

O‘qishni bitirgach ishga joylashish sohalari


Mutaxassislik bo‘yicha ishga joylashish ko‘rsatkichi (ixtiyoriy) — 95%

Nomutaxassislik bo‘yicha ishga joylashish ko‘rsatkichi (ixtiyoriy) — 5%

Shifoxona sohasi	Sport sohasi	Davlat xizmatchisi sohasi	Tadbirkorlik sohasi
Universitet shifoxonasi	Sport jamoasi murabbiyi	Sog‘liqni saqlash bo‘yicha davlat xizmatchisi	Uyga tashrif buyurib xizmat ko‘rsatish
Ko‘p tarmoqli shifoxona		Tibbiy texnika bo‘yicha davlat xizmatchisi	Vaucher xizmati
Ixtisoslashtirilgan shifoxona		Ma’muriy davlat xizmatchisi	Tibbiy jihozlar korxonasi
Klinika		Ixtisoslashtirilgan maktab	Tegishli tadqiqot instituti
Sanoatda sog‘liqni saqlash boshqarmasi		Ijtimoiy ta’minot obyektlari	

Radiologiya fakulteti

Ijodiy fikrlashga asoslangan professional radiologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash



Fakultet(mutaxassislik) haqida ma’lumot

Ilg‘or tibbiy sharoitlarda radiologiya texnologiyasini amalga oshirish uchun alohida bilim va texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lgan radiologlarni tayyorlash uchun tibbiy muassasalarda talab qilinadigan kasbiy ko‘nikmalar bo‘yicha intensiv ta’lim berilib, kreativlik va amaliy jihatdan e’tibor beriladigan sohaga moslashishga ega yuqori ixtisoslashgan rentgenologlar tayyorlanadi.

1978
Tashkil etilgan yili

393
Tahsil olayotgan talabalar soni

5,734
Bitiruvchilar soni

24
Professor-o‘qituvchilar soni

84
Davlat imtihonidan o‘tish ko‘rsatkichi

Daraja bo‘yicha ma’lumot

- Radiologiya fakulteti mutaxassis bakalavr darajasini olish
- Radiologiya fakulteti bakalavr darajasini olish
- Kamida 3 yillik klinik tajriba va magistratura bosqichida o‘qishni davom ettirish

Malaka sertifikatini olish/Davlat imtihoni guvohnomasi

- Radiolog guvohnomasi
- Radioizotop ishlov beruvchisi umumiy guvohnomasi va nazoratchi guvohnomasi
- Radiatsiyani buzmaydigan sinov sanoati muhandisi

Asosiy o‘quv dasturi

1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	Ishga joylashish
Boshlang‘ich salohiyat bo‘yicha fanlar	Asosiy salohiyat bo‘yicha fanlar	Amaliy salohiyat fanlar	Intensiv salohiyat bo‘yicha fanlar	
- Boshlang‘ich tibbiyot - Boshlang‘ich mutaxassislik - Insoniy fazilatlar - Kasbiy izlanish	- Klinik tibbiyot - Mutaxassislik salohiyatini mustahkamlash - Kasbni rejalashtirish	- Mutaxassislik amaliy salohiyatni mustahkamlash - Amaliy kadrni tayyorlash - Kasbga yo‘naltirish	- Kasbiy intensiv ta’lim - Professional texnik xodimlarni tayyorlash	

O‘qishni bitirgach ishga joylashish sohalari

Mutaxassislik bo‘yicha ishga joylashish ko‘rsatkichi (ixtiyoriy) — 75%

Nomutaxassislik bo‘yicha ishga joylashish ko‘rsatkichi (ixtiyoriy) — 25%

Shifoxona sohasi	Tibbiy jihozlar sohasi	Davlat xizmatchisi sohasi	Tadbirkorlik sohasi
Universitet shifoxonasi	PHILIPS	Sog‘liqni saqlash bo‘yicha davlat xizmatchisi	Mes Korea Co., Ltd.
Ko‘p tarmoqli shifoxona	SIEMENS	Tibbiy texnika bo‘yicha davlat xizmatchisi	Yeil Health Care
Tibbiyot markazi	CANON	Davlat sud-ekspertizasi instituti xodimi	
Shifoxona/Klinika	SAMSUNG MEDISON	Bojxona	
		Harbiy gospital (harbiy xodimlar)	